

**TOPISHMOQLAR – XALQ OG‘ZAKI IJODINING MUSTAQIL
JANRI SIFATIDA***Zakirova Maqsuda Atayevna**UrDU akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqola topishmoqlarning paydo bo‘lish tarixi, turlari va uning foydalari, hamda uning inson ongi shakllanishida tutgan o‘rni haqida.

Kalit so‘zlar: topishmoq, nasriy va she‘riy topishmoqlar, topishmoqlar badiiyati.

Bugungi kunda bolalar adabiyotining an‘anaviy janrlariga badiiy-estetik hodisa sifatida yondashib, poetik xususiyatlarini, yaratilish asoslarini, ijtimoiy-psixologik omillarini, ijodkor badiiy mahoratini ochishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, folklorning topishmoqdek qadimiy, an‘anaviy janrining milliy bolalar adabiyotini yuksaltirishdagi o‘rnini, ularni yozma adabiyot qoidalariga muvofiq qayta yaratish tamoyillarini yoritish adabiyotshunoslikning ushbu yo‘nalishini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mustaqillikka erishganimizdan buyon o‘zbek adabiyotshunosligida ham bolalar adabiyotidagi yangilanish jarayonlari, yetakchi taraqqiyot tamoyillari va badiiy tafakkur hamda ijodiy uslubdagi poetik izlanishlarni o‘rganish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. “Ayni vaqtda, madaniyat sohasida jaholatga qarshi ma‘rifat bilan kurashish, yoshlarimizni haqiqiy san‘atni anglashga o‘rgatish, ularning estetik olamini sog‘lom asosda shakllantirish bo‘yicha oldimizda muhim vazifalar turibdi”.¹

Topishmoq o‘zbek folklorining alohida, mustaqil va ommaviy janrlaridan biri bo‘lib, hayotni o‘ziga xos badiiy idrok etish shakli sifatida hozirgacha yashab kelmoqda. Unda insonni o‘rab olgan borliq hodisalari turli poetik ko‘chimlar, o‘xshatish-u qiyoslashlar, savol-javoblar vositasida ixcham badiiy shaklda aks ettiriladi. Bu jihati bilan u insoniyat badiiy tafakkuri taraqqiyotida favqulodda hodisa bo‘lib, unda obrazli zuhur etgan hayot parchasi topishmoqning javoblari orqali reallashadi. Janrning poetik tabiatiga xos bo‘lgan bunday umumiy xususiyat barcha xalqlar topishmoqlariga taalluqlidir.

Topishmoq janri barcha xalqlar folklorida uchraydi. Shu bilan birga har bir xalqning topishmog‘i o‘sha xalq hayot tarzining ifodasi sifatida betakror xususiyatlarni namoyon etadi.

¹ Mirziyoyev Sh. M. Adabiyot va san‘at, madaniyatni rivojlantirish –xalqimiz ma‘naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir (O‘zbekiston ijodkor ziyolilari bilan uchrashuvdagi ma‘ruzasi) // O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati, 2017 -yil, 4-avgust.

Topishmoq aytishishning ham qat'iy an'analari, o'ziga xos tartib-qoidalari bo'lgan. Topishmoq ijrosi uchun kamida ikki kishi, ikki guruh yoki topishmoq aytuvchi va uni eshituvchilar, javobini topuvchilar bo'lishi kerak. Topishmoq javobi topilmaguncha, yangisi aytilmagan. Shuning uchun ba'zan topishmoq javobini topishni yengillashtiruvchi qo'shimcha ma'lumotlarni aytishga ruxsat qilingan. Javob topilmasa, "shahar berish" va "shahar olish" o'yini o'tkazilib, topishmoqni topa olmagan kishi izza qilingan.

O'zbek xalq topishmoqlari mavzusi jihatidan g'oyatda boy va rang-barangdir. Xalqimiz ijtimoiy-maishiy turmushining mamlakatimiz tabiati, geografiyasi, ekologiyasi, nabotot va hayvonot olamining, inson va koinotning biror sohasi yo'qki, ular haqida bir-biridan go'zal, g'oyatda ixcham va siqiq topishmoqlar yaratilmagan bo'lsin. Yer va osmon, daryo va ko'llar, tog`-u toshlar, dov-daraxt va o'rmonlar, mevazor bog`lar va keng dalalar, oila-ro'zg`or jihozlari va mehnat qurollari, momaqaldiroq va chaqmoq, sel va bo'ron, zulmat va yorug`lik, oy va fasllar, hayvonot va o'simliklar olami, o'quv qurollari va musiqa asboblari, zamonaviy texnologiya va texnika vositalari, inson va uni o'rab olgan muhit haqida ko'plab topishmoqlar to'qilib, avloddan avlodga o'tib, bizning kunlarimizgacha aytilib kelinmoqda. Topishmoqlarda xalqning kundalik hayoti, yurish-turishi va yashash tarzi, ishonch-e'tiqodi, tasavvurlari va olamga qarashi aks etgan. Shu bilan birga topishmoqlarda tarixiy voqealar, ijtimoiy-siyosiy masalalar ham qisman o'z ifodasini topgan.

Topishmoqlar hamma davrlarda yaratilgan. Ijtimoiy hayotga yangi narsa va hodisalarning kirib kelishi bilan ular haqida topishmoqlar ham yaratila borgan. Natijada, hayotimizga kirib kelgan samolyot, poyezd, avtomashina, tramvay, traktor, patefon, radio, televizor, yer yo'ldoshi, telefon, lampochka, kompyuter haqida qator topishmoqlar yaratildi.

Cho`zilib yotar Narvon,

Undan o`tar uy-karvon. (poyezd yo`li)

Po`lat qushim uchdi-ketdi

Bir zum o`tmay Oyga yetdi (raketa)

Yangi mazmun va obraz tasviriga bag`ishlangan topishmoqlarda an'anaviy topishmoqlarning shakli, jumboqlash usullari, asosan, saqlanib qoldi, lekin metaforik topishmoqlar kam yaratilgan. Yangi topishmoqlarning yaratilishida individual ijodkorlarning xizmatlari katta bo'ldi. Bunday ijodkorlar yaratgan topishmoqlarnng muayyan qismi ommaviy repertuarga o'tib, bolalar orasida tobora keng tarqalib bormoqda.

Topishmoqlar tuzilishi jihatidan nasriy yoki she'riy shaklga ega. Nasriy topishmoqlar she'riy tuzilishdagi topishmoqlarga nisbatan ozchilikni tashkil etadi. She'riy topishmoqlarda she'r shakliga xos turoq, vazn, qofiya, radif kabi barcha jihatlarga to'la amal qilinadi.

Tomdan tuxum irg`itdim (do`l) – nasriy topishmoq.

U yoqqa o`tdim, bildingmi?

Bu yoqqa o`tdim, bildingmi?

Oq quvrayning boshini,

Chertib o`tdim, bildingmi? (shamol) - she`riy topishmoq. ²

Topishmoqlar ritmik izchilligi, badiiy ohangdorligi, qofiyalarning mo`l-ko`lligi va xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Metafora, metonimiya, mubolag`a, o`xshatish, sifatlash kabi badiiy tasvir vositalari va ko`chimlar ulardagi badiiylilikni ta`minlaydi. Alliterasiya va takrorlarning rang-barangligi va turfa-turfa tovlanishi topishmoqlarning jarangdorligi va emotsional ta`sirchanligini yanada oshirgan. Bularning barchasi birlashib, ularning kishi xotirasida uzoq saqlanishini ta`minlay olgan.

Xalq topishmoqlarida tazod (qarshilantirish) san`ati namunalari ham uchraydi.

“Osh ichida tosh,

Tosh ichida osh” (sumalak, toshbaqa)

Bu matnda hatto qofiya san`atining murakkab ko`rinishi tarse`ni ham uchratish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, topishmoqlar adabiyot va san`at, ta`lim-tarbiya taraqqiyotiga barakali ta`sir etadi. Ular adabiyotimiz tarixida chiston, muammo, muvashshax, ta`rix kabi lirik janrlarning paydo bo`lishi va rivojida katta ahamiyatga ega bo`ldi. Bugungi kunda topishmoqlar juda katta ma`rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ular bolalar va yoshlarimizning fikr doirasini kengaytirish, topqirligini oshirish va muhokama qobiliyatini o`stirishning muhim estetik vositasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O`zbekiston, 2017. – 485 b.
2. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O`zbek xalq og`zaki poetik ijodi . Darslik. – T.: O`qituvchi”, 1990. – 304 b.
3. Husainova Z. Topishmoqlar // O`zbek folklori ocherklari. Uch tomlik, birinchi tom. – T.: Fan, 1988. – B.100-101.
4. O. Madayev , T. Sobitova. Xalq og`zaki poetik ijodi. “Sharq “ nashriyot – matbaa . Toshkent - 2003
5. Abdurahmon Akbar. G`aroyib avtobus: quvnoq she`rlar, ertak va topishmoqlar, adabiy saboqlar. – T.: “O`qituvchi” NMIU, 2012. – 103 b.
6. Akbar Abdurahmon. Cho`ntakdagi daraxt. She`rlar, topishmoqlar, ertaklar, tarjimalar / A.Akbar.–T.: “O`zbekiston” NMIU, 2018.–200 b.
7. Miraziz A`zam. Qirq bolaga qirq savol. – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2001. – 20 b.
8. Miraziz A`zam. Bolalar uchun asarlar. Saylanma. – T.: Cho`lpon nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2005. – 560 b.

² O. Madayev , T. Sobitova. Xalq og`zaki poetik ijodi. “Sharq “ nashriyot – matbaa . Toshkent - 2003